

---

## Farg'ona shahrida "Pillakorlar sayli" dasturi doirasida madaniy tadbir o'tkazildi

Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi teatr va konsert saroyida "O'zbekiston Konstitutsiyasi bu - bizning Bosh Qomusimiz" shiori ostida "Pillakorlar sayli" dasturi doirasida konsert bo'lib o'tdi.

Konsert dasturida O'zbekiston xalq hofizi Ilhomjon Ibrohimov, estradamizning yorqin yulduzlari - "Sado" guruhi doirachilari, Yorqinxo'ja Umarov, Elyor Meliboyev, Otabek Muhammadzohid, Abdujalil Qo'qonov va boshqalar ishtirok etishdi.

Tadbirda viloyatimizning barcha hududlarida pilla yetishtirishda astoydil mehnat qilayotgan ilg'orlar, mazkur sohada tahsil olayotgan talaba yoshlar taklif qilindi. Shuningdek, shahrimiz aholisi va mehmonlari ham madaniy dasturdan bahramand bo'lishdi.

Madaniy tadbir davomida so'zga chiqqanlar tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasidagi inson va uning manfaatlarini himoya qiluvchi yangi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-04-27 16:17:31